MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



N.Q.Komilova, M.Usmonov, L.Qarshiboeva,
M.M.Mahmudov, A.M.Movlonov, B.O.Omonov

# TURIZM VA REKREATSIYA GEOGRAFIYASI

O'zb.2
910
T-80

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

N.Q.Komilova, M.Usmonov, L.Qoshlibaeva, M.M.Mahmudov,
A.M.Movlonov, B.O.Omonov

# TURIZM VA REKREATSIYA GEOGRAFIYASI
(DARSLIK)

Toshkent
"Fidokor Yosh Avlod"
2024

2024-0008/B
O'ZMU
GEOGRAFIYA VA TA...
RESURSLAR FAKUL...
ARM

UO'K 91:379.83(075)
KBK: 75.81ya73
T 87
277 bet

Mazkur darslikda turizm va rekreatsiya geografiyasining mohiyati, asosiy jarayonlari, rivojlanish qonuniyatlari ko'rib chiqilgan. Darslik O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari 5140600-geografiya, 5110500-geografiya o'qitish metodikasi yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan magistrlar, tadqiqotchilar va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan qiziquvchilar ham foydalanishi mumkin.

UO'K 91:379.83(075)
KBK: 75.81ya73
T 87

**Mas'ul muharrir:**
g.f.n., dots. V.b. Ravshanov A.X

**Taqrizchilar:**
g.f.n., dotsent Xidiraliyev K.T
g.f.f.d., (PhD) Rajabov F.T

ISBN: 978-9943-9115-5-0
© "Fidokor Yosh Avlod" nashriyoti, Toshkent 2024 y

## KIRISH

Ma'lumki, insoniyat qadimdan dunyoni bilishga va uni anglashga, yangi erlarni ko'rishga hamda o'zi uchun noma'lum bo'lgan hududlarni kashf etishga harakat qilgan. Bu orzularni amalga oshirish bevosita yaqin va uzoq hududlarga sayohatga chiqish orqali bajarilgan. Sayohat davomida ruhan dam olishgan va tabiatning go'zal mo'jizalariga hamda insonlar tomonidan yaratilgan ajoyib narsalardan hayratlangan. Sayohatlar davomida tabiatning noyob va betakror go'zalligidan bahra olish orqali bevosita va bilvosita o'zining sog'lig'ini tiklaganlar, bu esa rekreatsion faoliyatning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Hozirgi kunda turizmning jahon xo'jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko'pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o'rin tutmoqda. Bu o'z navbatida turizm industriyasiga bog'liq bo'lsada, bunda sog'liqni tiklash va sog'lomlashtirish turizmi rekreatsiya faoliyati bilan aloqadordir. Shu jihatdan O'zbekistonda mazkur tarmoqqa e'tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir.

Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) prognozi bo'yicha turizm industriyasida 2020-yilgacha xalqaro turizmda o'sish tendensiyasi saqlanib qolinadi. Binobarin, barqaror o'sish dinamikasi Osiyo va Tinch okeani regionidagi bir qancha mamlakatlarda jadal rivojlanishi xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunga o'z navbatida bugungi kundagi turizmga berilayotgan keng ko'lamli investitsiyalar va turistik salohiyatning yuqoriligidir.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globalizatsiya jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog'ini rivojlantirish orqali muhim masalalarni echish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda. Shu jumladan, respublikamizda olib borilayotgan islohatlarning muhim yo'nalishlaridan biri turizm sohasini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim. Bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar

doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. 2019-2025-yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va shu asosda 2025-yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard AQSH dollariga etkazish lozim" – deb vazifa belgilanganini keltirib o'tish mumkin. Bundan tashqari, ushbu sohani jadal rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda PQ-4095-sonli "Turizm tarmog'ini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini keltirib o'tish mumkin. Ushbu qarorda 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurishning maqsadli parametrlari, istiqbolli investitsiya loyihalari, zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etiladigan madaniyat obyektlari va muassasalari belgilab berildi.

2017-yilda jahon turizm harakatlarida 1,1 mlrd ga yaqin turist ishtirok etdi. O'zbekistonga keluvchi xorijiy turistlar sonida ham o'sish kuzatildi va bu ko'rsatkich 5,5 mln kishini tashkil qildi. Turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning soni 680 ta bo'lib, bu ko'rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda. O'zbekistonning ko'hna tarixi, qadimiy madaniy merosi jahon turistlarini o'ziga qiziqtirib kelgan bo'lsa-da, sobiq sho'rolar davrida xorijiy mamlakatlar bilan bevosita turistik aloqalar o'rnatish va hamkorlik qilish chegaralangan edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng turizm sohasini jahon andazalariga ko'tarish masalasi jiddiy muhokama qilinib, bu sohani yangidan isloh qilish bo'yicha Turizm to'g'risidagi qonun, Prezident farmon va qarorlari va davlat dasturlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5326-son Farmonining 10 bandida turistik kartalar tayyorlash masalasining qo'yilganligi geograflar oldiga katta vazifalar

belgilab beradi. Shuningdek, farmon bandlarida hududlar turistik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish masalalari ham belgilab qo'yilgan. Demak, "hudud egasi" bu albatta geograflardir. Shuning uchun har bir hududlar, mamlakatlar, xattoki tuman, qishloq, tog' va daryolar, cho'llar turistik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi lozimdir.

Geografiya fani XX asrning ikkinchi yarmiga kelib yangi yo'nalishlar, ya'ni, aholiga xizmat ko'rsatish, hobbiyot, rekreatsiya va turizm kabi tarmoqlarni o'rgana boshladi. Shu jihatdan ushbu fanda turizmni hududiy tomonlariga ham qiziqish oshib bormoqda. Fanning tabiiy geografiya tarmog'i rekreatsiya resurslarini tabiiy geografik xususiyatlarini o'rgansa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada esa, turizm hamda rekreatsiya resurslarini baholash va ulardan foydalanish, hududiy turistik majmualar va turistik rayonlashtirishga katta e'tibor qaratiladi.

Turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanning ko'pgina qirralari bilan uzoq xorijiy davlatlaridan I.G.Kol, A.Gerloni, R.Blanshar, A.Mariotti, V.Unirsiker, Cornelia Iatu, MDH davlatlarida A.Y.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, Yu.A.Vedenin, S.R.Erdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, Yu.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiev, A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizm geografiyasining ayrim muammolari bo'yicha Z.M.Akramov, A.Ahmedov, Sh.A.Azimov, A.Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A.Soliev, A.Nigmatov, T.Toshmurodov, B.Hasanboev, N.To'xliev, A.Taksanov, A.Yusupov, R.Xaydarov, N.T.Shamuratova, X.Mamatqulov kabi mutaxassislar shug'ullangan. Rekreatsion faoliyatning geografik xususiyatlari bilan L.Alibekov, A.Abdulqosimov, A.Nigmatov, S.Abbosovlar tabiiy geografik jihatlarini, N.Komilova, M.Nazarov, R.Usmonova, A.Ravshanov, U.Badalovalar esa ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga aloqador tadqiqotlar olib borgan.

**1-Mavzu**

## Turizm va rekreatsiya geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari

**Maqsad:** *Talabalarga turizm va rekreatsiya geografiyasining o'rganish obyekti va predmeti maqsad vazifalari bo'yicha tushuncha berish.*

**Tayanch so'zlar va iboralar:** *turizm geografiyasi, rekreatsion geografiyani obyekti, predmet, maqsad, vazifa, kurortshunoslik, hududiy rekreatsion tizim, turizmni rivojlanishi va hududiy turistik majmua.*



**Reja:**

**1. Turizm geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti**

**2. Rekreatsion geografiyaning obyekti, predmeti va vazifalari**

**3. Rekreatsiya va turizm geografiyasining umumiy hamda xususiy jihatlar kiradi.**

### 1. Turizm geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti



«Turizm geografiyasi» terminini birinchi bo'lib fanga 1905-yilda D.Stradnerom kiritgan. U o'z izlanishlarida turistik faoliyatning xo'jalikni rivojlantirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratdi. K.Shyoza (1919) esa turizmda moddiy texnik bazalarni yaratish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga u madaniy tarixiy va tabiiy landshaftlarni turizm geografiyasining muhim obyekti sifatida o'rgandi.

Ta'kidlash joizki, ushbu fanning turli jabhalari bo'yicha xorijiy davlatlar olimlari ko'p izlanishlar olib borgan. Masalan, Fransiyada birinchi bo'lib R.Blanshar (1920) Alp tog'ida turizm xo'jaligi va turistik marshrutlarni tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tkazdi. Shu davrda Italiyada A.Mariotti turizmning tarixiy bosqichlarini ajratdi va shu asosda uni o'rgandi. Bundan tashqari, 1930-40-yillarda ko'pgina davlatlar olimlari

turizm va turizm geografiyasining ayrim qirralariga oid ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Jumladan, Germaniyada, Fransiyada, Shveytsariyada, Yaponiya hamda AQShda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy turistik resurslardan foydalanish va ularning imkoniyatlari to'g'risida ilmiy asarlar yaratilgan (Erdavletov, 2000, b.97).

Yevropa va Shimoliy Amerika olimlari tomonidan hududlarni keng miqyosda o'rganish, ilmiy asosda dam olishni tashkil etish va mavjud muammolarni turistik va geografik tadqiqotlar zaminida o'rgandi. Ular o'zlarining ilmiy tavsiyalarida ishlab chiqarish va tabiiy muhit o'rtasidagi tafovutni chetlab o'tmadi. Shu bois, mazkur mintaqalarda turizm tez sur'atlar bilan o'sib bordi. Chunonchi, 1936–1939-yillarda turizm sohasi bo'yicha Krakovdagi Yagellon universitetida turistik kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berildi. Shu davrda polyak geografi S.Liship turizm geografiyasining ilmiy-uslubiy jihatlarini o'rganib, o'zining asarlarida «Turist geografiyasi» va «Turizm geografiyasi» terminlarini geografik adabiyotlarga kiritdi. U turizm geografiyasining o'rganishda statistika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar bilan aloqasini ilmiy-uslubiy jihatdan isbotladi, turistik tadqiqotlarda xaritaning muhimligini alohida ta'kidladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida turizmga doir ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar birmuncha pasaydi. Urushdan keyingi 50-60-yillarda turizm geografiyasini o'rganish Fransiya, Kanada, GFR, Avstriya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yaponiya va boshqa davlatlarda keng ko'lamli o'rganildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi yillarda Sobiq Ittifoqda ham bu yo'nalish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebov (1984) rekreatsiya va turizmning geografik xususiyatlari to'g'risida, P.N.Zachinyaev, N.S.Falkovich (1972) xalqaro turizmning geografik joylanishi va rivojlanishi bo'yicha ilmiy asarlar yaratdi. Bundan tashqari, turizm geografiyasining nazariy va uslubiy asoslarini Pirojnik I.I., Kotlyarov E.A., Aleksandrova A.Yu., Dmitrevskiy Yu.D., Erdavletov S.R. va boshqalar ham ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. Ammo, ta'kidlash joizki, sobiq Ittifoqda rekreatsiya va turizm sohasini keng miqyosda o'rganish yaqin o'tmishda boshlandi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy fan tarmog'i sifatida o'rganishda SSSR Fanlar akademiyasining Geografiya instituti olimlari

I.P.Gerasimov, V.S.Preobrajenskiy, A.A.Mina, B.N.Lixanov, Yu.A.Vedenin, I.V.Zorin, I.I.Muxina, E.B.Aliev va boshqalar izlanishlar olib bordi. Shuningdek, turizmning turli yo'nalishlari bo'yicha N.M.Svarkova, K.M.Krivosheeva, B.G.Fadeev, D.Kobaxidze, Yu.A.Shtyurmer, U.N.Nabieva, M.I.Azar kabi ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan (Kotlyarov, 1978).

Hozirgi paytda Markaziy Osiyo geograf olimlari, jumladan, Z.M.Akramov, H.A.Ahmedov, Sh.Azimov, G.R.Asanov, A.S.Saliev, A.Nig'matov, O.Ostanaev, S.R.Erdavletov, N.Alimqulova, M.Husanboev, K.N.Musin, A.G.Nizamiev, A.A.Joldasbekov va boshqalar tomonidan turizm geografiyasining turli masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ko'pgina mutaxassislar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasini (RG) bir biriga qo'shilgan holda, yaxlit predmet sifatida ko'rishgan. Ammo bu yo'nalishlarni N.Jarj, B.Barbe (Fransiya), I.Matznetter (Germaniya), F.Xellayner (Kanada), V.S.Preobrajenskiy, Yu.A.Vedenin va boshqalar ularni alohida-alohida ko'rishga harakat qilishdi. A.I. Chistobaev va M.D Sharigin lar (1990) turizm geografiyasi ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fani bilan bog'liq holda umumiy hududiy tizimni tashkil etadi va TG ga ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada hududiy integral-sintetik fan sifatida yondoshishadi.

Turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanning tadqiqot obyekti va boshqa ko'pgina qirralari bilan uzoq xorijiy davlatlardan I.G.Kol, A.Gettner, R.Blanshorom, A.Mariotti, V.Unitsiker, Cornelit Iatu, MDH davlatlarida A.Yu.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, Yu.A.Vedenin, S.R.Erdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, Yu.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizmning ayrim muammolari bo'yicha Z.M.Akramov, F.A.Ahmedov, Sh.A.Azimov, A.Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A.Soliev, T.Toshmurodov, B.Husanboev, N.To'xliev, A.Taksanov, A.Yusupov kabi mutaxassislar shug'ullangan. Ammo mamlakatimizda ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslari maxsus

yo'nalish sifatida kam o'rganilgan. Shu bois turizm geografiyasining mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish, uning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim yo'nalishi darajasida tadqiq etish ilmiy ahamiyatga egadir.

N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebov (1981) fikricha, inson faoliyatining barcha maqsadli, maqsadsiz, bo'sh paytlarida sog'lomlashtirish, tanishuv, sport va madaniy-maishiy faoliyati rekreatsiya, sayohat paytida aholi yashash joyidan boshqa joyga qisqa va uzoq muddatli sayohati, sayr qilishi, ekskursiyasi, tanishuv, ilmiy va sport musobaqalarida 24 soat ichida bo'lishini turizm deb hisoblaydilar.

V.S.Preobrajenskiy rekreatsiya geografiyasini rekreatsion tizim sifatida o'rganib, uning predmeti va o'rganish obyektini hududiy rekreatsion tizimi (HRT) deb ta'riflaydi. E.A.Kotlyarov (1978) va I.I.Pirojniklar (1985) TG va RG ga o'z asarlarida alohida e'tibor qaratadi.

Mavjud ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, aksariyat olimlar turizm geografiyasini nisbatan yangi va uni rekreatsiya geografiyasining bir qismi sifatida qarashga moyillar. Darhaqiqat, turistik faoliyat uzoq muddatli dam olish, sog'liqni tiklash kabi rekreatsion maqsadlarga ancha to'g'ri keladi. (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981, b.11)

G.R.Asanov TG va RG ga baho berib, «Turizmning gurkirab o'sishi geografiya oldiga yangi vazifalar qo'ydi, xususan turistlar oqimlari, qonuniyatlar, turizm industriyasi (mehmonxona, pansionatlar, xizmat sohasi va b.k.) iqtisodiy geografiyaning obyekti bo'lib qoldi. Tabiiyki, turizm geografiyasi faqat dam olish uchun qilinadigan safarlar geografiyasigina emas, balki umuman sayohatlar, safarlar geografiyasi bilan, jumladan, xizmat sohasi va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq ko'pgina masalalarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, TG safarlar geografiyasi bo'lib, geografiyaning yangi tarmog'idir. RG predmeti hududiy rekreatsiya tizimlarlari (HRT), ularning tarkib topishi, rivojlanish qonuniyatlar tarkibi va taqsimlanishi o'rganishdan iborat bo'lgan geografiya fani oralig'idagi kompleks xarakterdagi oraliq fan», deb baholaydi (Asanov, 1990).

Ayni chog'da, N.S.Mironenko, D.D.Rodman, I.V.Zorin rekreatsion rayonlashtirishda iqtisodiy geografik omilga katta e'tibor qaratadi. V.S.Preobrajenskiy va Yu.A.Vedeninlar esa turizmni ijtimoiy-iqtisodiy tadqiq etishda aholi, aholi manzilgohlari, shahar va shahar atrofi,

urbanizatsiya jarayonining turizmni rivojlantirishdagi o'rniga ahamiyat berdi. A.Soliev fikricha, turizm geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yangi tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini belgilovchi muhim omil bo'lishini ta'kidlaydi. Ayni paytda, geografiyaning ushbu yo'nalishi ko'p jihatdan kishilarning bo'sh vaqti, mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga bog'liq. Shunday qilib, turizm geografiyasi keng qamrovli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik fanlar oralig'idagi nisbatan yangi tarmoqlardan biri bo'lib, u mintaqa yoki biror hududning tarixiy taraqqiyotidagi erishgan yutuqlari, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, xo'jaligining yuksalishidagi o'rni va o'ziga xos hududiy xususiyatlarini o'rganadi. Turizmni iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida qaralganda uning to'rtta asosiy hududiy bug'inlari yoki bosqichlarini ajratish mumkin: **xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy turizm**. Bu erda biz uchun eng ahamiyatlisi mintaqaviy turizm (MT) hisoblanadi. Chunki, aynan ana shu darajada turizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun tashkiliy va huquqiy asoslar mavjud. MT mamlakatning ma'lum bir hududida o'zining ma'muriy-boshqaruv organi, infratuzilmasi mavjud bo'lgan makonni anglatadi. Binobarin, olib borilgan tadqiqotda «MT» tushunchasining kiritilishi ushbu fanni nazariy jihatdan boyitdi.

Ma'lumki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada hududiy tizim yoki majmualar g'oyasi muhim o'rinni egallaydi. Ular jumlasiga eng avvalo N.N.Kolosovskiy yaratgan (1947) hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM) kiradi. Shunga mos holda TG uchun hududiy turistik majmua (HTM) tushunchasi katta ahamiyatga ega. Bizningcha, **HTM–ma'lum bir hududda yagona infratuzilma asosida turli turistik obyektlarning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi va uni boshqarishni anglatadi**. HTM avvalo V.S.Preobrajenskiy tomonidan ilgari surilgan hududiy rekreatsion tizim (HRT) bilan chambarchas bog'liq. Ammo HTM bilan HRT o'rtasidagi tafovut ko'proq ularning hududiy jihatdan qanday maqsad va vazifalari, hududiy tafovut yotadi. Ayni paytda biz taklif etayotgan HTM tushunchasi HRT dan farqli o'laroq kichik (lokal) hududni egallashi bilan ajralib turadi hamda tizim tarkib qoidasiga muvofiq sergatlamli, pog'onasimon bo'ladi. Shu o'rinda e'tiborga olish joizki, hududiy rekreatsion yoki turistik

tizimlarning mohiyati va taksonomik birliklari to'g'risida aniq bir fikr mavjud emas. Masalan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebovlar (1981, b.131) HRT lari 5 taksonomik birlikka ajratishadi: rekreatsion zona (megarayon), rekreatsion rayon (makrorayon), rekreatsion subrayons, rekreatsion mikrorayon va rekreatsion punkt. Xuddi shunday, Yu.D.Dmitrevskiy ham rekreatsiya yoki turistik rayonlarni 5 bug'indan iborat, deb ko'rsatadi: turistik rekreatsion zona, turistik makrorayon, turistik mezorayon, turistik mikrorayon va turistik obyekt (Dmitrevskiy, 2002, b.109).

Kishilarning biror mintaqadan yoki hududdan boshqa joylarga safar qilishida bevosita geografik xususiyatlar, ya'ni qulay tabiiy geografik sharoit va siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm geografiyasi, A.Soliev fikricha, bu ajonli, faol yoki harakatdagi geografiyadir. Chunki, biror turistik obyektni ko'rish uchun o'sha joyga borib bevosita ko'rishi lozim. Bu maqsadga esa geografik marshrutlar asosida amalga oshiriladi. Qolaversa, geografiya fanining tarixi, kelib chiqishi ham ko'p jihatdan aynan turli xil sayohatlarga, hozirgi zamon tili bilan aytganda, turizmga bog'liq.

**Turizm geografiyasi (TG) iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi.** TG hududiy harakat oqibatida, ya'ni er yuzining turli tomonlariga geografik marshrutlar uyushtirish asosida vujudga keladi. Bu esa mintaqada xizmat ko'rsatish geografiyasini tashkil etish va rivojlantirishga ham sababchi bo'ladi. Sayohat inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoni teran anglashga xizmat qiladi. Kishilar er yuzining bir biriga o'xshash bo'lmagan joylarini ko'rishni xohlashadi. Demak, biror hudud yoki mintaqaga sayohatga chiqishda tabiiy sharoit katta ahamiyatga egadir. Aksariyat sayyohlar bo'sh paytlarida tabiat qo'ynida dam olish, ovchilik qilish, sport va boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni istashadi hamda sog'lig'ini tiklaydilar. Shuning uchun xorijiy davlatlardagi ko'plab turistik firma va kompaniyalar ko'proq bu omillardan foydalanishga harakat qiladilar. Bu o'rinda Janubi-sharqiy Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya davlatlari turistik firmalari o'z xaridorlari bo'lgan Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari sayyohlarini ko'proq

tabiati go'zal hamda ekzotik joylarini ko'rsatishga katta e'tibor qaratadi. Dengiz bo'yi, o'rmon, tog' va tog'oldi rayonlardagi davlatlar, O'rta dengiz havzasida joylashgan hamda Malayziya, Indoneziya, Singapur va boshqa shunga o'xshash mamlakatlar sayyohlarni keng jalb qiladi. Bu o'z navbatida, tabiiy turistik imkoniyatning yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, tog' tabiati, landshafti, relefi, iqlimi, tog' sporti va boshqa xususiyatlari bilan sayyohlarni o'ziga qiziqtiradi. Bunday tog' turizmi Yevropaning Karpat va Alpida, Osiyoning Himolayida, Afrikaning Atlas tog'larida, Amerikaning And va Kordilerasida keng rivojlangan.

## 2.Rekreatsion geografiyaning predmeti, obyekti va vazifalari



*Rekreatsion geografiya* - bu geografiyaning alohida ilmiy yo'nalishi bo'lib, tibbiyot, biologiya va geografiya fanlari tutashgan joyda vujudga kelgan ilmiy terminidir. Vaqt o'tishi davomida insonlar sog'lig'ini tiklash maqsadida muammolarning dolzarb ahamiyat kasb etib borishi va tadqiqot obyektining chuqurlashishi natijasida rekreatsion geografiyaning paydo bo'lish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu jihatdan rekreatsion geografik muammolarni o'rganish bu soha tarmoqlarining tadqiqot obyektiga aylandi. Bu esa inson organizmini har tomonlama rivojlanishida muhimdir.

Uning tadqiqot predmetining maqsad va vazifalariga ko'ra, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda, mehnat resurslaridan oqilona foydalanishda, tabiat resurslaridan inson salomatligini mustahkamlash uchun foydalanishni tadqiq qilishda, tabiiy va tarixiy yodgorliklarning dam olish uchun ahamiyatini o'rganishda va boshqa geografik hamda demografik muammolarni echishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rekreatsiya tushunchasi chet ellik va mahalliy geograf olimlar tomonidan talqin qilingan bo'lib, ular bir-biriga o'xshashdir. Rekreatsiya tiklash, o'rnini to'ldirish ning qamrovi katta bo'lib, odamning mehnat qilgandan so'ng dam olish, sog'lig'ini tiklash, madaniy hordiq chiqarishi ma'nosida ishlatiladi (Rafiqov,Azimov, 2000).

Rekreatsiya (polyakcha rekreatsja-dam olish, lotincha *rekreatio-tiklanish*), u 1) tanaffus, bayramlar, ta'tillar; 2) dam olish imkoniyati; 3) dam olish, insonning mehnat jarayonida sarflangan kuchini qayta tiklash *ma'nolarini* anglatadi (Vahobov, 2008).

Rekreatsion geografiyani *o'rganish obyekti* hududiy rekreatsion tizimlarni (HRT) o'rganishdir . (Kuskov, 2003).

Yuqoridagilarni xulosa qilgan holda quyidagicha ta'riflash mumkin: *Rekreatsiya tushunchasi* (lotincha recreatio-so'zma-so'z tiklash) odamning mehnat jarayonida sarflangan kuchini tiklash, hordiq chiqarish degan ma'noni beradi. Rekreatsion geografiya - hududiy rekreatsiya tizimlarining vujudga kelishi, joylashishi va faoliyatining qonuniyatlarini o'rganadi.

Rekrealogiya – landshaft va uning xususiyatlarini bosh omil hisoblovchi birinchi fanlardan biri sifatida maydonga chiqdi. Rekrealogiya va rekreatsion faoliyatning diqqatga molik jihati shundaki rekrealogiya obyekti inson bo'lsa, uning tadqiqot predmeti esa shaxs hayotining ma'naviy, jismoniy, ijtimoiy qismi bo'lmish bo'sh vaqt faoliyatidir.

Rekreatsion geografiya tibbiyot geografiyasi, turizm geografiyasi va kurortshunoslikdan farq qilgan holda ular bilan bog'liq va birgalikda rivojlanadi.

Tibbiyot geografiyasi-inson salomatligi va turli xil kasalliklarning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omil va sharoitlar, ularning mamlakat hamda rayonlarda tarqalish qonuniyatlari va xususiyatlarini o'rganadi. Nazariy jihatdan tibbiyot geografiyasi tibbiyot va geografiya fanlarining tegishli qismlariga asoslanadi. U uch tarkibiy qismdan iborat bo'lgan keng qamrovli ijtimoiy geografiyaning ijtimoiy blokidan bevosita o'rin oladi (Soliev, 1995). Chunki, inson salomatligi jamiyat taraqqiyotining har bir davri uchun kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri hisoblangan. Aholi salomatligiga aloqador masalalarni hal etishda salomatlik va kasalliklarning hududiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi tibbiyot geografiyasining ahamiyati katta.

Kurortshunoslik esa organizmni fiziologik jihatdan tahlil qilib, davolanishni insonning jismoniy kuchini tiklash uchun davolash sharoitlarini o'rganib, sog'liqni qayta tiklashda zarur bo'lgan usullarni o'rganadi.

Turistik faoliyat – aholining dam olishi uchun samarali shart-sharoitlarni yaratishdagi rekreatsion tizimlarni shakllantirish va rivojlantirishdagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Turizm bu: a) turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turi, ya'ni turistning faoliyatidir; b) bunday sayohatlarni uyushtirish va amalga oshirish turistik faoliyatdir. Bunday faoliyat turli xil turistik tashkilotlar va ular bilan bog'liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi. Dam olish va rekreatsiya maqsadidagi turizm, bu turizmning asosiy maqsadi dam olish, davolanish va boshqa sog'lomlashtirish maqsadlaridan iborat. U bo'sh vaqtni o'tkazish uchun sayr-tomosha va turli xil sport mashg'ulotlarini taklif etadi. Ba'zi asoslarga ko'ra unga turizmning ekskursiya, ixtisoslashgan, ta'limiy, sport, sarguzasht, ekzotik, ekologik turlari ham qo'shiladi.

Rekreologik tadqiqotlarning barchasida inson kuch quvvatining tiklanishi jarayoni va uni o'rganish bosh vazifa sifatida qaraladi.

*Birinchidan*, insonlarning jamiyatda ko'plab ijtimoiy ma'naviy ehtiyojlari mavjud, bu ehtiyojlar ham o'z navbatida bir qancha guruhlarga bo'linadi va bu guruhlar dam olishni ko'ngildagidek o'tkazish sharoitlarini belgilash, inson organizmi quvvatini tiklashdagi kishi ehtiyoji bilan bog'liq.

*Ikkinchidan*, insonning dam olishi va bo'sh vaqtlarini ko'ngildagidek o'tkazishdagi bu kabi ehtiyojlar insonni jamoatchilik faoliyatiga jalb etish uchun maxsus sharoitlar yaratadi va rekreatsion faoliyatni uyg'otadi.

*Uchinchidan*, rekreatsion faoliyatning rivojlanishi tabiatda olib borilishini e'tiborga olish natijasida tabiiy obyektlarni muhofaza qilish, asrash, madaniy-me'moriy majmualar tizimini tabiat bilan uyg'unlashtirish, rekreatsion ehtiyojni qanoatlantirishda jamoatchilik faoliyatini rivojlantiradi.

*To'rtinchidan*, rekreatsion tizimni tashkil etishda ehtiyoj, faoliyat yo'nalishi, tizimning yaratilish zaruriyati va uning elementlari, tizimni tashkil etuvchi ichki va tashqi aloqalar kabi omillar muhim o'rin tutadi.

*Beshinchidan*, rekreatsion tizim faoliyati rekreatsion faoliyatning vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

*Oltinchidan*, rekreatsion tizim ijtimoiy, demografik, ekologik, makon va dinamik tizimlarning ham tarkibiy qismidir. Shunday ekan, rekreatsion tizim rekreologiyaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Rekreatsion geografiya hudud tabiiy komplekslarini o'rganish natijalariga tayangan holda, ularni rekreatsiya nuqtayi nazaridan majmuali baholash, amaliy foydalanishda optimallashtirishni ilmiy asoslashdan iborat.

*Rekreatsion geografiyaning* tadqiq qilish obyekti va subyekti har-xil ijtimoiy-madaniy bilimlar tizimidan iborat. Rekreatsion geografiya obyektining turli ma'nosi moddiy predmetlar, tizimlar, jarayonlar va hodisalar, shuningdek, insonning har-xil rekreatsion faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini shakllantiruvchi mezonlarni tushuniladi. Bu o'ziga xos rekreatsion faoliyatni to'g'ridan – to'g'ri rivojlantiruvchi ko'pgina omillarga bo'ysunuvchi asos bo'lib, ammo o'z holicha ahamiyatga ega emasdir.Rekreatsion geografiyaning subekti sifatida rekreatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi inson tushuniladi.

*Rekreatsion geografiyaning obyekti*- ma'lum hudud tabiiy sharoiti va resurslarini va HRT larini rekreatsiya nuqtayi nazaridan o'rganish, aniqlash va tashkil qilish. Ushbu yo'nalishning *predmeti* – ma'lum hudud tabiiy sharoiti va resurslarini rekreatsiya nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilish, shu asosda hududni dam olish va sog'lomlashtirish uchun baholashni amalga oshirishdir. Rekreatsiya tizimlarini tabiiy resurslar asosida yaratishni talqin qilish va uni sog'liqni saqlash jarayoniga tadbiq etish yo'llarini ishlab chiqish. Rekreatsiya tizimlarini hududiy iqtisodiy tashkil etilishini o'rganish, rekreatsiya infratuzilmasining imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilishdan iboratdir. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

-inson sog'lig'ini tiklash va sayohat uchun zarur sharoitlarni yaratishni o'rganish;

-rekreatsiya tizimlari uchun zarur bo'lgan tabiiy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va resurslarni aniqlash hamda tahlil qilish;

-rekreatsiya tizimlarini tashkil qilish;

-hududiy rekreatsiya tizim (HRT) larini yaratish shart-sharoitlarini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish;

-rekreatsiya tizimlarini tashkil qilish va foydalanishda tabiatni muhofaza qilish.

Jamiyatning rivojlanishini turli xil fanlar va ularning yutuqlarisiz tasavvur etish qiyin. Shu nuqtai nazardan fanlar tizimida geografiya fani ham o'z mavqeiga ega va uning taraqqiyotida ko'plab yangi-yangi tadqiqot va

olamshlar bo'lishi tabiiy. Ayniqsa, zamonaviy geografiya fanlari tizimida ijtimoiy sohalarga e'tibor kuchaymoqda. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy geografiyaning o'ziga xos sohalaridan biri bo'lgan rekreatsiya geografiyasi oldiga yangidan-yangi muammolarni qo'ymoqda. Tibbiyot geografiyasining hozirgi taraqqiyot bosqichiga kelib, rekreatsiya geografiyasining mazmuni va mohiyati sezilarli darajada kengayib bormoqda. Tibbiy bilimlarning hamda insonlarning sog'ligini tiklashda omillarning rolini o'rganish natijasida ularni nazariy, metodologik, amaliy jihatlarini ochib beruvchi yangi istiqbolli yo'nalishlari paydo bo'ladi. Hozirgi zamonda tibbiyot fanining rivojlanishi ularga ayrim tarmoqlarning ixtisoslashuvi, differensiallanishi va integratsiyasi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, bunday yo'nalishlar geografik va rekreatsiya bilimlarining taraqqiy etishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, turli kasalliklarning kelib chiqishida tabiiy komponentlarning rolini aniqlash va kasalliklarni davolashdagi rolini aniqlashda hamda rekreatsiya maqsadlarda tabiiy omillardan foydalanish kabi masalalarni yechish ancha qiyinchilik tug'dirdi. Shu boisdan ham ko'plab olimlar tomonidan Rekreatsiya geografiyasi XX asrning ikkinchi yarmidan 60-yillardan keyin chuqurroq o'rganila boshladi. Mazkur fanning rivojlanishida V.S.Preobrajenskiy,(1-rasm) A.A.Mints, P.G.Sarfis, I.P.Gerasimov, A.A.Shoshina, A.P.Avsin, A.D.Lebedov va boshqalarning xizmatlari katta. Hududiy rekreatsion tizimlar turli xil rekreatsion tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi rekreatsion geografiyaning o'rganish obyekti bo'lib hisoblanadi (Preobrajenskiy, 1975). Rekreatsiya turizmning muhim asosini tashkil etib, insonning jismoniy, psixologik intellektual kuchi va quvvatining katta ishlab chiqarish jarayoniga aylandi. Rekreatsiya faoliyati bilan bog'liq tadqiqotlar zamonaviy fan tizimining yangi, ya'ni yosh yo'nalishlaridan biridir. 1963-1975-yillarda hozirgi Rossiya Fanlar Akademiyasi geografiya instituti mutaxassislar jamoasi (V.S.Preobrajenskiy, Yu.A.Vedenin, I.V.Zorin, V.N.Lexonov, L.I.Muxina, L.S.Filippovich va boshqalar) tomonidan "Rekreatsion geografiyaning nazariy asoslari" nomli monografiya tayyorlandi va bu monografiya keyingi shu kabi tadqiqotlar uchun asos sifatida xizmat qildi. Olimlar 15-20 yil mobaynida bunday masalalarni echib beradigan ko'plab ilmiy asarlar yaratganlar. Jumladan, A.A.Shoshinaning

«Tibbiy geografiya asoslari» (1962) va «Tibbiy-geografik tadqiqotlar metodlari» (1965), «Tropik mamlakatlar tibbiy geografiyasi» A.G.Voronovaning «Biogeografiya» (1963), D.Stampening «Hayot va o'lim geografiyasi» (1957) kitobining inglizcha tarjimasi, «Dam olish va turizmni tashkil etishning geografik muammolari bo'yicha tezis-dokladlar» (1969), V.S.Preobrajenskiyning «Rekreatsion geografiyaning nazariy asoslari» (1975), N.A.Danilovaning «Tabiat va bizning sog'lig'imiz» (1977) nomli kitoblari, A.P.Avsinaning (1972, 1974) turli geografik rayonlarda inson patologiyasi bo'yicha, V.P.Kaznacheevaning (1974) inson adaptatsiyasi tadqiqotlarida tabiiy geografiyaning rolini aniqlash bo'yicha, A.D.Lebedevaning (1965) tibbiy (tibbiyot) geografiyasi asoslari bo'yicha ilmiy asoslangan qiziqarli ishlar chop etildi. P.G. Sarfis fikricha, rekreatsiya geografiyasining zimmasida, eng avvalo, quyidagi masalalarni echish yotadi.



*1-rasm: Professor. V.S.Pereobrajenskiy*

Charchoqning mohiyatini ochib berish, turli kasalliklar rivojlanishining mexanizmini echish hamda hududiy rekreatsion tizimlar (HRT) va kishining dam olishi va davolanishi uchun bunday rekreatsion tizimdan to'g'ri foydalanish istiqbollarini ishlab chiqish masalalari yotadi. Turli kasalliklarga chalingan bemorlarning dam olishini tashkil etishda asosiy vazifa tabiat komponentlari, ya'ni iqlimiy sharoit, o'simlik va hayvonot dunyosi, joyning relefi va estetik xususiyatlari, mineral shifobaxsh suvlar, davolash xususiyatiga ega bo'lgan balchiq, loyqa va iqlimiy omillarning roli kattadir. Shunday qilib, rekreatsiya faoliyatiga inson bilan tabiiy komponentlar o'rtasidagi o'zaro murakkab aloqadorlikni, jarayonlarni o'rganishni kiritish mumkin. Bunday murakkab aloqadorlikning mohiyatini anglamaq uchun



GEOGRAFIYA VA TABIIY RESURSLAR FAKULTETI

eng avvalo, tibbiy-biologik, shu jumladan kurortologiya, fiziologiya, psixologiya, shu bilan birga sotsial-iqtisodiy, texnik, balneo-texnik, gidrologiya va boshqa fan sohalarida keng foydalanish mumkin. Bugungi kungacha O'zbekistonda rekreatsiya resurslarini geografik jihatdan kompleks tahlilga asoslanib o'rganish bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar G.Zakirov (1990), A.Yusupov (1995), R.Usmonovalar (2001) ishlarida yoritilgan. B.Ziyamuhamedov (1983) rekreatsiya resurslariga baho berishni va ularni aniqlashni uch bosqichga ajratadi. Ya'ni, rekreatsiya resurslari mezonini ishlab chiqish, baholash jadvalini tuzib chiqish, resurslar qiymatiga qarab hududlarni chegaralash deb baho bergan edi. Insonning xo'jalik faoliyati tabiatdagi mavjud resurslar bilan bog'liqdir. Resurs tushunchasi keng qamrovli bo'lib, inson ulardan turli maqsadlarda foydalanib kelmoqda. Inson faoliyatida muhim rol o'ynovchi resurslardan biri bu rekreatsiya resurslari hisoblanadi. Insonning rekreatsiya faoliyati: dam olish, hordiq chiqarish, sog'lomlashtirish, sayohat qilib, ruhini ko'tarishga qaratilgan faoliyat majmuasini o'z ichiga oladi. Bunday resurslar ikki xil bo'lib, birinchisi, inson tomonidan yaratilgan, ya'ni antropogen rekreatsiya resurslar va ikkinchisi tabiat tomonidan insonga in'om etilgan tabiiy holdagi xushmanzara maskanlar, insonga estetik zavq beruvchi joylar



### 3. Rekreatsiya va turizm geografiyasining umumiy hamda xususiy jihatlar

Darhaqiqat, keyingi yillarda iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar doirasi kengayib, tibbiyot geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi hamda turizm geografiyasi kabi ijtimoiy yo'nalishlar muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Binobarin, bu yo'nalishdagi geografik tadqiqotlar bugungi kundagi dolzarb ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ijtimoiy geografiyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri rekreatsiya geografiyasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish hamda hududiy mehnat taqsimotida rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish muhim o'rin tutadi. Bu o'z o'rnida

hududlarni istiqbolli rivojlantirishda etakchi omil sifatida rol o'ynashi ham mumkin. Bunda rekreatsiya resurslaridan turizm maqsadida foydalanish, turbiznesni yo'lga qo'yish orqali aholi sog'lig'ini tiklash, sog'lomlashtirish, kurortlar tizimini hududiy tashkil etish bilan bog'liqdir. Shu bois, turizm geografiyasi va rekreatsiya geografiyasining o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlarini shu nuqtai nazardan tahlil etish lozim. Rekreatsiya geografiyasi nazariy masalalari bilan V.S.Preobrajenskiy, L.I.Muxin, Yu.A.Vedenin, I.V.Zorina (1960, 1970) va G.T.Kubesova (2004) va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular turizm hamda rekreatsiya geografiyasining nazariy masalalariga turlicha yondashgan. Xususan, rekreatsiya geografiyasi tabiiy geografik fanlari tarkibidagi, turizm geografiyasi esa iqtisodiy geografiyaning bir tarmog'i sifatida baholanadi. Bizningcha, rekreatsiya geografiyasi tabiiy geografiya hamda ijtimoiy geografiyaning qirrasida joylashgan, turizm geografiyasini esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda iqtisodiyot fanlari qirrasidagi milliy iqtisodiyotning bir turi sifatida qarash mumkin. Rekreatsiya geografiyasining umumiy xususiyatlari bu sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash faoliyatiga qaratilgan majmualar, turizm geografiyasi esa dam olish, tanishuv, sog'lomlashtirish bilan bog'liq xo'jalikning bir turidir. Binobarin, rekreatsion faoliyat orqali daromad olish esa turizm bilan umumiy va xususiy jihatlarni tavsiflaydi. Darhaqiqat, turizm geografiyasi iqtisodiyot tarmoqlari sifatida hozirgi kunda muhim daromad keltiruvchi sohalardan biriga aylanib ulgurdi. U turistik xo'jalik faoliyati va moddiy texnik ba'zasi sifatida tarixiy, arxitektura, zamonaviy shaharsozlik arxitekturasi, madaniy-tabiiy yodgorliklar, diniy, dam olish, sog'lomlashtirish obyektlari, etnografiya kabi tarmoqlarni qamrab olgan. Turizm-sayyohat inson tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirishi, kishilarni tabiatni sevishga, insonlar turmush tarzi va madaniyati, san'atini teran bilishga xizmat qiladi. Shu bois, u o'z mohiyat, maqsad va mazmuniga ko'ra tom ma'nodagi ijtimoiy geografiyaga mos keladi. Turizm geografiyasining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida dastlabki izlanishlar XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin I.G.Kol tomonidan olib borilgan. Bu tadqiqot dam olish, turizm geografiyasi bo'yicha ilk qadamlardan biri bo'ldi. Shu davrda nemis geografi A.Gettner

ham o'z izlanishlarida TG (turizm geografiyasi) ning o'ziga xos jihatlarini ochib berdi (Kuhesova G, 2004).

U turizm geografiyasining predmeti bo'yicha ilmiy ishlar olib borib, yirik shaharlar atrofida tabiat va iqlim resurslaridan foydalanish xususiyatlariga katta e'tibor berdi. Shuningdek, Gettner sayyohat paytida kishilarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamda rekreatsiya resurslaridan foydalanishini turizm geografiyasining predmeti deb ta'kidlaydi (Erdavletov, 2000). XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi yillarda sobiq Ittifoqda ham bu yo'nalish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebov (1984) rekreatsiya va turizmning geografik xususiyatlari to'g'risida, P.N.Zachinyaev, N.S.Falkovich (1972) xalqaro turizmning geografik joylanishi va rivojlanishi bo'yicha ilmiy asarlar yaratdi. Bundan tashqari, turizm geografiyasining nazariy va uslubiy asoslarini Pirojnik I.I, Korlyarov E.A., Aleksandrova A.Yu., Dmitrevskiy Yu.D., Erdavletov S.R. va boshqalarning ham ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. Ammo, ta'kidlash joizki, sobiq Ittifoqda rekreatsiya va turizm sohasini keng miqyosda o'rganish yaqin o'tmishda boshlandi. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo geograf olimlari, jumladan, Z.M.Akramov, E.A.Akmaiev, Sh.Azimov, G.R.Asanov, A.S.Soliev, (3-rasm) O.Otamirzaev, S.R.Erdavletov, N.Aliqulova, M.Husenboev, B.Ziyomuxamedov, K.N.Musin, A.G.Nizamiev, A.A.Joldasbekov, G.Zokirov, Z.Do'rieva, R.Usmonova, A.Yusupov, M.R.Usmonov (2006) va boshqalar tomonidan turizm va rekreatsiya geografiyasining turli masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebov (1981) inson faoliyatining barcha maqsadli, maqsadsiz, bo'sh paytlarida sog'lomlashtirish, tanishuv, sport va madaniy-maishiy faoliyati rekreatsiya, sayyohat paytida aholi yashash joyidan boshqa joyga qisqa va uzoq muddatli sayyohati, sayr qilishi, ekskursiyasi, tanishuv, ilmiy va sport musobaqalarida 24 soat ichida bo'lishini turizm deb hisoblaydilar. V.S.Preobrajenskiy rekreatsiya geografiyasini rekreatsiya tizim sifatida o'rganib, uning predmeti va o'rganish obyektini hududiy rekreatsion tizimi deb ta'riflaydi. Mavjud ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, aksariyat olimlar turizm geografiyasini nisbatan yangi va uni rekreatsiya geografiyasining bir qismi sifatida qarashga moyillar. Darhaqiqat, turistik faoliyat uzoq muddatli dam

etish, sog'liqni tiklash kabi rekreatsiya maqsadlarga ancha to'g'ri keladi (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981). Ayni chog'da, N.S.Mironenko, B.B Rodman, I.V.Zorinlar rekreatsiya resurslarni rayonlashtirishda iqtisodiy geografik omilga katta e'tibor qaratdi. V.S.Preobrajenskiy va Yu.A.Vedeninlar esa turizmni ijtimoiy-iqtisodiy tadqiq etishda aholi, aholi manzilgohlari, shahar va shahar atrofi, urbanizatsiya jarayonining turizmni rivojlantirishdagi o'rniga ahamiyat berishdi. Bizning fikrimizcha, turizm geografiyasi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy geografiyaning yangi tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakat va hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lishi, ayni paytda esa, geografiyaning ushbu yo'nalishi ko'p jihatdan mintaqalarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda e'tiborga olish joizki, hududiy rekreatsion yoki turistik tizimlarning mohiyati va taksonomik birliklari to'g'risida aniq bir fikr mavjud emas. Masalan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebovlar (1981) HRT-larni 5 taksonomik birlikka ajratishadi: rekreatsion zona (mintaqa), rekreatsion rayon (makrorayon), rekreatsion «podrayon», rekreatsion mikrorayon va rekreatsion punkt. Xuddi shunday Yu.D.Dmitrevskiy ham rekreatsiya yoki turistik rayonlarni 5 bo'g'indan iborat, deb ko'rsatadi: turistik rekreatsion zona, turistik makrorayon, turistik mezorayon, turistik mikrorayon va turistik obyekt (Dmitrevskiy, 2002). Bu olimlardan avvalroq E.A.Kotlyarov hududiy turistik majmualarni 3 bosqichga ajratgan: 1) rayon darajasidagi rekreatsion majmua, 2) rekreatsion mikrorayon va 3) rekreatsion tashkilot yoki korxona (Kotlyarov, 1978). Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu erda majmuali (kompleks) va tizimli (sistema) yondashuv uyg'unlashib ketgan. Garchi ular orasida katta farq bo'lmasa-da, kichik hududlarga nisbatan turizmning hududiy tashkil qilish shakllarini HTM sifatida qarashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ayni vaqtda mintaqaviy turizm (MT) ana shunday hududiy turistik majmualar birikmasidan tashkil topadi. MT salohiyatidan kelib chiqqan holda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun turli muassasalar va ayniqsa kichik joylarda turistik obyektlar va ular bilan bog'liq bo'lgan infratuzilmalarning o'zaro joylashuvida HTM larning ahamiyati oshadi. HTM g'oyasi mahiyatan hududiy turistik rayonlar yoki sistema

tushunchalariga yaqin, chunki, ularning asosida bitta majmua yotadi. Biroq, HTM ularning pastki va o'rta pog'onalariga mos kelgani ma'qul. Chunki, hududiy mujassamlashuv samaradorligiga (aglomeratsion samaradorlik) faqat ma'lum sharoitlardagina erishiladi, mazmun ko'lami kengaysa samaradorlik pasayadi yoki yo'qoladi. Bundan, HTM hajmi, odatda, bir soatlik piyoda sayr qilish doirasida ajratish to'g'riroq bo'ladi. Bunday yondashuv umuman tabiiy geografiya hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadagi majmualik (komplekslik) tamoyilidan kelib chiqadi. Ayni vaqtda turizmni majmua ko'rinishida hududiy tashkil etish, uni boshqarish va rivojlantirish hamda turistik marshrutlarni tuzishda ahamiyatlidir. Xususan, shahar ichidagi turli marshrutlar, tabiiy rekreatsiya va dam olish oromgohlaridagi maskanlar, ekoturistik marshrutlar va boshqalarda birinchi navbatda ushbu turistik obyektning geografik joylashuvi hamda transport va turli xil infratuzilmalarning qay darajada bo'lishi bevosita marshrutning samaradorligini ta'minlaydi (Soliev A., Usmanov M., 2005). Jamiyatning rivojlanishini turli xil fanlar va ularning yutuqlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Shu nuqtai nazardan ijtimoiy geografiya fanlar tizimida geografiya fani ham o'z mavqeiga ega va uning taraqqiyotida ko'plab yangi-yangi tadqiqot va izlanishlar bo'lishi tabiiy. Ayniqsa, zamonaviy geografiya fanlari tizimida ijtimoiy sohalarga e'tibor kuchaymoqda. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy geografiyaning o'ziga xos sohalaridan biri bo'lgan, aniqrog'i, tabiat qo'ynida dam olish, sayr qilish va salomatlik darajasi hamda ularning hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi rekreatsiya geografiyasi oldiga yangidan-yangi muammolarni qo'ymoqda. Bir qator mamlakatlarda katta-katta hududlar rekreatsion manba sifatida shakllanayotganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, Fransiya, Italiyaning O'rta dengiz sohil bo'yi mintaqasi, Qora dengiz sohillari, tog'li va tog'oldi va boshqa mintaqalar rekreatsion maqsadlarda foydalanilmoqda. Shuningdek, Yaponiya, Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Afrika, Markaziy Osiyo (O'zbekiston), Yevropa, Shimoliy Kavkaz, Kavkazorti davlatlari, Karpat tog' tizmasi, Alp tog'lari hududlarida o'ziga xos rekreatsiya maskanlaridan iborat mintaqalar mavjud. Rekreatsiya tizimi majmuali bo'lib, tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, bir tomondan rekreatsiya tizimi katta er fondini (garchi qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz er resurslari,

ayrim tog'li hududlar, estetik ahamiyatga molik tabiiy manzaralar va boshqalari taqozo qilsa, ikkinchi tomondan rekreatsiya mintaqasining o'ziga (tabiiy landshaftga) bo'lgan haddan tashqari kuchli tazyiq tabiatga va uning resurslariga salbiy ta'sir etadi. Ayni vaqtda, rekreatsiya mintaqalarda salomatlikni tiklash va sog'lomlashtirish tabiiy manbalar bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Quyoshli kunlarning ko'p bo'lishi, atmosfera musaffoligi, shifobaxsh suv va balchiqlardan inson salomatligini tiklash va sog'lomlashtirish resurslari sifatida qaraladi. Rekreatsiya resurslardan samarali foydalanish esa faqat ayrim hududlar iqtisodiy taraqqiyotigina emas, balki butun-butun mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ham katta o'rin tutadi. Tabiiy va rekreatsion resurslar hosil bo'lish xususiyatlariga qarab emas, balki foydalanish xususiyatlariga qarab ajratiladi. Rekreatsiya resurslari - istirohat, turizm va davolanish maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan tabiat obyektlari va hodisalaridir. Bunday resurslarga dengiz sohillari, daryo va ko'llar bo'ylari, o'rmonli erlar, mineral va shifobaxsh balchiqlar chiqqan joylar kiradi. Mazkur joylarda dam oluvchi va turistlar uchun juda xilma-xil va go'zal tabiatli landshaftlar, boy o'simliklar olami, dam olish, sport bilan shug'ullanish, ovchilik, baliq tutish va shu kabilar uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Katta shaharlar atroflaridagi yashil mintaqalar, qo'riqxona va bog'lar, madaniy, tarixiy, arxeologik yodgorliklar diqqatga sazovor joylardan hisoblanadi. Keyingi yillarda tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida tabiiy landshaftga ega bo'lgan hududlarda dam olish zonalari tashkil etilib ulardan keng foydalanilmoqda. Tabiatdan foydalanishning bu shakli landshaftdan rekreatsiya maqsadida foydalanish imkonini beradi. Shu o'rinda tabiiy muhitdan rekreatsion maqsadda foydalanganda keyinchalik ro'y beradigan oqibatlarga e'tibor berish zarur. Chunki, ayrim sabablarga ko'ra, foydalaniladigan hududning tuproq yoki o'simliklari o'zgarib, yovvoyi hayvonlar yo'q bo'lib ketishi, umuman biogeotsenozdagi bog'lanishlarga salbiy ta'sir ko'rsatilishi mumkin. Shuning uchun tabiiy muhitdan rekreatsion maqsadda foydalanishda er fondlari ajratish zarur va davlat tomonidan ushbu rekreatsiya hududlarini muhofaza qilishning dastlabki yo'nalishi hududlarga keladigan kishilarning sonini va ularning bu joylardagi faoliyatlarini belgilashdan iborat. Ikkinchidan, rekreatsion hududlar tabiatini muhofaza qilishni yaxshi yo'lga qo'yish va dam olishni turistik tashkilotlar uyushtirishi

lozim. Uchinchidan, rekreatsion hududlar landshaftini tabiiy holda saqlashda mahalliy tashkilotlar va umuman kishilarning o'zlari faol qatnashishlari, tushuntirish ishlari olib borishlari zarur bo'ladi. Shuningdek, eng nodir hududlardan dam olish uchun ma'lum qismi ajratilishi zarur. Ajratilgan hududni muayyan vaqtda foydalanilgan joylarning tabiiy holatini yana tiklashga erishmoq zarur. Dinobarin, respublikamiz hududidagi tekislik va tog'lik rayonlarda fuqarolarning dam olishlarini ta'minlash va sog'liqlarini mustahkamlash uchun qulay tabiiy sharoitlar va resurslar borki, ulardan rekreatsiya maqsadlarida foydalanish imkonini beradi. Tog' va tog' oldi rayonlari hududidan rekreatsiya maqsadlarida keyingi yillarda ancha samarali foydalanilmoqda.

Avmaqsa, Chirchiq, Pochchaatasoy, Shohimardonsoy, Ohangaron daryolari vodiylarida juda ko'p dam olish zonalari barpo etilgan. Ammo dam olish obyektlari - dam olish uylari, sanatoriylar, turistik bazalar ayrim hududlarda haddan tashqari zich joylashgan. Oqtoshcha, Pochchaota, Xumsoz, Burchmulla, Chimyon, Shohimardonsoyda ularning soni juda ko'p. Bularni e'tiborga olib, rekreatsiya hududlar landshaftini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish borasida bir qator ishlar qilinmoqda. Sanashko nomidagi Respublika kurortalogiya va fizioterapiya instituti xodimlari respublikamizda dam olish uylari va pansionatlar quriladigan rekreatsiya hududlarini aniqlab berdilar. Chunonchi, Toshkent viloyati Qoramozor, Yangiqo'rg'on, Qoranqulsoy, Chorbog' suv ombori hududi, Chimyon, Zarkent va Piskom vodiylari, Samarqand viloyatida Omonqo'ton, Tepako'l, Andak, Bog'imozor vodiylari; Jizzax viloyatida Zomin, Baxmal davlat xo'jaligi hududi; Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatida Boysun, Avlot, Darband, Farg'ona viloyatida Qubhonko'l, Chorkesarmozor, Kosonsoy, Vodil, G'ova va boshqa hududlardan rekreatsiya maqsadlarida foydalanish mumkin.

Rekreatsiya maqsadlar uchun, ayniqsa, Respublikamizning tog' va tog' oldi rayonlarida dam olishni samarali tashkil etishda foydalaniladigan erlar eng'ilishni, tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'llari belgilanmoqda, tabiiy resurslardan foydalanish usullari ko'rsatib berilmoqda. Rekreatsiya va turizm geografiyasining umumiy va xususiy jihatlarini bir qarashda yaxlit yoki alohida-alohida ko'rish mumkin. Uning umumiy jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular geografiya fanining bir tarmog'i sifatida, xususiy

jihatlari esa har birini xududiy rekreatsion va turistik rayonlashtirish, hududiy tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etiladi. Bunda hududiy rekreatsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar (HTM) nazariyasini yanada chuqurroq ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

UNWTO

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1.Turizm termini kim tomonidan va qachon kiritilgan?
2.Rekreatsion geografiyani o'rganish obyekti nimalardan iborat?
3.Rekreatsion geografiya bilan chet ellik va mahalliy olimlardan kimlar izlanish olib borgan?
4.Turizm termini va tushunchalariga qaysi olimlar tomonidan ta'rif berilgan?
5.Turist tushunchasini kimlarga nisbatan qo'llash mumkin?
6.Turistik resurslar majmui nimalardan iborat?
7.Turizm geografiyasi nimani o'rganadigan fan hisoblanadi?
8. Rekreatsiya va turizm geografiyasining umumiy hamda xususiy jihatlari nimalardan iborat?

2-Mavzu

**Rekreatsiya va turizm tushunchasi, ta'rifi, xususiyatlari**

**Maqsad:** *Talabalarga Turizm va rekreatsiya bo'yicha tushuncha berish va uning rivojlanish xususiyatlarini ochib berish.*

**Tayanch so'zlar va iboralar:** *Rekreatsiya, turizm, turizm va turist, turizmni rivojlanish manzaralari, rekreatsion tizim, rekreatologiya, rekreatsion faoliyat, oddiy rekreatsion mashg'ulot.*



**Reja:**

1. Rekreatsiyaning rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari.
2. Turizim tushunchasining rivojlanish bosqichlari.



**1-Rekreatsiyaning rivojlanish bosqichlari xususiyatlari.**

"*Rekreatsiya*" (lotincha dam olish - tiklanish) - bu mehnat jarayonida inson sarflagan kuchlarni tiklash, shuningdek, jismoniy va intellektual salohiyatni yanada rivojlantirish uchun inson organizmining yangi kuchlarning ma'lum bir zaxirasini to'plash, shu bilan birga, sog'liq va mehnat qobiliyatini tiklashda uydan tashqarida dam olish, ya'ni uyushgan yoki uyushmagan sayohatlarga qatnashish yoki ixtisoslashtirilgan dam olish maskanlarida (sanatoriyalar, dam olish uylari va h.k.) to'liqni o'tkazish orqali amalga oshirilishi kerak bo'ladigan jarayon.

Fan nuqtai-nazaridan rekreatsiya ijtimoiy funksiyalarining umume'tirof etilgan tasnifi mavjud bo'lmasa ham, ularni 3 asosiy xususiyatini ko'rsatamiz mumkin.

✓ Tibbiy va **biologik xususiyati** – sanatoriya-kurortlar orqali davolash va reabilitatsiya qilish. Turli shifobaxsh resurslardan foydalanib insonning sanoat va ijtimoiy hayotidagi ruhiy charchoqlarini olib bartaraf qilishga qaratilgan funksiya hisoblanadi.

- ✓ **Ijtimoiy va madaniy xususiyati** - bu dam olishning etakchi funktsiyasidir. Madaniy yoki ma'naviy ehtiyojlar - bu keng ma'noda bilish ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Turizm nafaqat o'z mamlakatining, balki butun dunyoning tabiiy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy qadriyatlari bilan insonning o'zaro aloqasi uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi.

**Iqtisodiy xususiyati** - mehnat kuchlarini takror ishlab chiqarish. Dam olish bu ijtimoiy vaqtni tejashga yordam beradi. Dam olish tufayli ishchilarning mehnat qobiliyati oshadi, to'liq ish qobiliyatini saqlash davri davomiyligi oshadi, bu esa kasallar sonining pasayishi va hayotiylikning o'sishi hisobiga ish vaqtining ko'payishiga olib keladi. Dam olish boshqa iqtisodiy funksiyalarni ham bajaradi: mamlakatning ma'lum bir qismining iqtisodiy tuzilishini jadal rivojlantirish; bandlik ko'lamini kengaytirish, ya'ni bilvosita dam olish bilan bog'liq sohalarda bandlikni oshirish; aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi tarkibiga va butun mamlakat bo'ylab dam olish maskanlari foydasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi; valyuta tushumining manbai sifatida tashqi turizmning samaradorligini oshirish kabi jarayonlarga yaqindan ko'maklashadi.

Dam oluvchilarning rekreatsion faoliyati esa – inson ma'naviy, ruhiy, jismoniy, intellektual quvvatining o'sishi, ruhiyat tetikligini ta'minlashdagi ehtiyojning ta'minlanishidagi faoliyat yo'nalishidan iborat.

Rekreatsion tizim (RT) - dam oluvchilar guruhi, tabiiy va madaniy majmualar, texnik tizim, xizmat ko'rsatuvchilar, boshqaruv organlari kabi rekreatsion ehtiyojlarni ta'minlash guruhlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy – demoekologik tizim hisoblanadi. Dam olishni tashkil qiluvchilarning turistik faoliyati esa – aholining dam olishi uchun optimal shart-sharoitlarni yaratishdagi rekreatsion tizimlarini shakllantirish va rivojlantirishdagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Rekrealogik tadqiqotlarning barchasida inson tirik kuchining tiklanishi jarayoni va uni o'rganish bosh vazifa sifatida qaraladi.

Birinchidan, jamiyat va kishilarning ko'plab ijtimoiy ma'naviy ehtiyojlari mavjud bo'lib, ular ham o'z navbatida bir qancha guruhlarga bo'linadi va bu guruhlar bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazish sharoitlarini belgilash, jonli quvvatni tiklashdagi kishi ehtiyoji bilan bog'liq.